

Farg'ona vodiysidan gekkonlarning jahon faunasi uchun yangi turi topildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti "Kamyob hayvonlar hisobi va kadastri" laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan "Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan hayvon turlarining kadastrini yuritishning ilmiy asoslarini yaratish (Farg'ona vodiysi misolida)" davlat dasturi, WWF (World Wide Fund for Nature) va CEPF (Critical Ecosystem Partnership Fund) fondlari tomonidan qo'llab quvvatlangan "Farg'ona vodiysi hududida asosiy tabiiy komplekslarni saqlash" loyihalari amalga oshirilmoqda. Farg'ona vodiysida yashovchi kamyob va endemik sudralib yuruvchilarning terisidan olingan namunalarda olib borilgan genetik tadqiqot natijalariga ko'ra **dunyo faunasi uchun ilk marotaba *Alsophylax sp. gekkoni*** aniqlandi.

Ajablanarlisi shundaki, Farg'ona vodiysida ko'plab zoologik tadqiqotlar o'tkazilganiga qaramay, bu tur endigina kashf etildi. Bu, ehtimol ushbu turning maxsus biologiyasi va ekologiyasi bilan bog'liq. Ushbu tur *Alsophylax* urug'ining boshqa turlari singari kichik o'lchamga ega bo'lib, voyaga yetganlarining kattaligi boshi bilan o'rtacha 3 - 3,5 santimetrni tashkil qiladi. Bu tur faqat tungi faol bo'lib, xavf tug'ilganda tuproqning yoriqlari va notekis joylariga yashirinadi. Shuningdek, bu tur akustik signallar yordamida muloqot qiladi.

Aytish joizki, **bu tur hozirgacha faqat O'zbekiston hududida topilgan.**



Fotosurat muallifi Timur Abduraupov

Ayni paytda namunalarda olingan barcha hayvonlarning DNK namunalari ajratilgan va DNK sekvensiyasi yakunlanishi kutilmoqda. Biroq, ba'zi namunalarda, ya'ni biz tomonimizdan ushbu hududida ilk marotaba aniqlangan gekkon allaqachon to'liq shifrlangan va hatto filogenetik daraxtga aylantirilgan, bu esa ushbu

turning jahon fani uchun mutlaqo yangi tur ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yangi turga genetik jihatdan eng yaqin turlar mos ravishda mamlakatning shimoli-g'arbiy va janubi-g'arbiy qismida yashovchi chiyildoq gekkoncha (*Alsophylax pipiens*) va silliq gekkoncha (*Alsophylax laevis*) hisoblanadi.